

## **Andijon davlat tibbiyot instituti 2-umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash kafedrası**



**2-umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash  
kafedra mudiri: tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent**

**Dilmurod Madaminovich Qalandarov**

**Ish vaqti:** 8.00 – 17.00

Tel: +998 94 100-02-22

**e-mail:** [dilmurad\\_1973@mail.ru](mailto:dilmurad_1973@mail.ru)

**2-UASHT kafedrası Andijon viloyati ko‘p  
tarmoqli tibbiyot markazi qoshida joylashgan.**

### **2-umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash kafedrası**

#### **tarixi va faoliyati**

Kafedra 1996 yili tashkil etilgan, 2011 yilgacha professor Ne‘matjon Salievich Mamasaliev rahbarlik qilgan. Tibbiyot fanlari doktori, professor N.S. Mamasoliev rahbarligida mazkur kafedra umumiy amaliyot shifokori faoliyati tizimiga birinchilar qatorida mamlakat ko‘lamida asos solindi, u shakllantirildi va mazkur kafedraning kelajak istiqboli uchun mustahkam poydevor yaratildi, o‘quv jarayonini Evropa standartidagi sifat darajasiga ko‘tarishda hamda kadrlar tayyorlashda “Ta‘lim uchburchagi”ni takomillashtirib borib, izchil amaliy ishlar amalga oshirildi.

2011yil dekabr oyidan boshlab, kafedrani tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Dilmurod Madaminovich Qalandarov boshqarib kelmoqda.

#### **O‘qitish**

Kafedrada 6-kurs davolash fakulteti talabalari uchun «Oila tibbiyoti, ichki kasalliklar, geriatriya, laboratoriya, kasb kasalliklari va allergologiya» fanlaridan mashg‘ulotlar o‘qitiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar kafedrada o‘zbek, rus va ingliz tilida olib boriladi.

## Kafedra professor-o'qituvchilarining ro'yxati

<b>№</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Ilmiy darajasi va lavozimi</b>
<b>1</b>	<b>Qalandarov Dilmurod Madaminovich</b>	Kafedra mudiri, dotsent
<b>2</b>	<b>Jo'raboev Baxtiyor Normatovich</b>	Dotsent
<b>3</b>	<b>Sodikova Dilrabo Tojidinovna</b>	Dotsent
<b>4</b>	<b>Xudoyarova Nazokat Kaxarovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>5</b>	<b>Kutlikova Go'zal Maxamadjonovna</b>	Katta o'qituvchi
<b>6</b>	<b>Yuldasheva Gulnora Baxtiyarovna</b>	T.f.n. Assistent
<b>7</b>	<b>Raubjonov Xusanboy Mamatolipovich</b>	Assistent
<b>8</b>	<b>Usmanova Yayraxon Gulyamovna</b>	Assistent
<b>9</b>	<b>Ibragimova Zuxra</b>	Assistent
<b>10</b>	<b>Mamajonova Ziyoda Kobiljon qizi</b>	Assistent
<b>11</b>	<b>Kayumova Soxiba Abdumannob qizi</b>	Kabinet mudiri

O'qitish jarayonida talabalar ixtiyorida o'zbek va rus tillaridagi tibbiyotga oid zamonaviy adabiyotlar bilan jihozlangan kutubxona, birlamchi bo'g'in miqyosidagi tekshiriladigan asbob-uskunalar bilan, kafedra xodimlari bemorlarni qabul qiladigan oila shifokorining xonasi mavjud.

O'qitish jarayonida taqdimot shaklidagi ma'ruzalar, birlamchi bug'in miqyosida tekshiriladigan usullarni va mulyajlarni qo'llagan holda amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.



**Ertalabki konferensiya**

Amaliy mashgʻulot darslarida muammoviy oʻqitish va turli xil yangi pedagogik oʻqitish usullaridan foydalaniladi: turli xil oʻyinlar, ADTI qoshidagi amaliy koʻnikmalar laboratoriyasidagi mulyaj va manikendlardan, shuningdek, AVKTTMning poliklinikasining klinik laboratoriyasidan foydalaniladi.



## **KAFEDRA FAOLIYATI**

Kafedrada oʻqitilayotgan fanlar

### **BAKALAVRIAT**

Ichki kasalliklar – davolash, kasb taʼlim yoʻnalishi 6-bosqich talabalari

Allergologiya - davolash, pediatriya, kasb taʼlim yoʻnalishi 6-bosqich talabalari

Kasb kasalliklar - davolash, kasb taʼlim yoʻnalishi 6-bosqich talabalari

Laboratoriya - davolash, pediatriya, kasb taʼlim yoʻnalishi 6-bosqich talabalari

Gospital terapiya - pediatriya yoʻnalishi 6-bosqich talabalari

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, oʻquv jarayonini zamonaviylashtirish, grant ilmiy loyihalarni keng amalga oshirish, xoʻjalik shartnomasi asosida faoliyatni kuchaytirish va kafedra moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, shifokorlar uchun qoʻllanma va tavsiyanomalar yaratib berish, mamlakatda terapiya va kardiologiya fanini raqobatdosh qilib rivojlantirishga sezilarli hissa qoʻshish hamda malakali kadrlar tayyorlab berish kabilarga qaratilgan.

## Kafedra ilmiy yo‘nalishlari

Keng ko‘lamli, o‘ta dolzarb masalalar va jahon fani uchun dolzarb muammo bo‘lgan, yurak qon-tomir va surunkali noinfeksion kasalliklar epidemiologiyasi hamda profilaktikasi, ekologik tibbiyot, klimatopatologiya, farmako-epidemiologiya, ichki kasalliklarni shakllanishi, klinik kechishi, davolash va profilaktikasi xususiyatlari kabi mavzularni o‘z ichiga oladi.

Maxalliy va chet ellarda 100 ga yaqin ilmiy makolalar va tezislar nashr etilgan.

### Kafedrada chop etilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanma va ko‘rsatmalar.

№	F.I.SH.	O‘quv -uslubiy qo‘llanmani nomi va nashriyot nomi	Nashrga tavsiya etgan vazirlik yoki kengash nomi, sanasi, karor raqami
1.	Kalandarov D.M.	Nafas olish tizimi a‘zolari kasalliklarini o‘smirlar, kariyalar va xomiladorlarda kechishi. O‘quv ko‘llanma	O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro‘yxatga olish rakami 303-104
2	Kalandarov D.M.	Klinicheskie navyki vracha obshchey praktiki. O‘quv ko‘llanma	O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro‘yxatga olish rakami 303-102
2.	Kalandarov D.M.	Intrepatitsiya i otsenka rezultatov paraklinicheskix issledovaniy v diagnostiki vnutrennix bolezney. O‘quv ko‘llanma	O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. 2015 yil 21 avgust “303” sonli buyrugi. Ro‘yxatga olish rakami 303-103
3.	Mamasoliev N.S. Qalandarov D.M. Jo‘raboev B.N.	“Bronxial astma va surunkali o‘pka obstruktiv kasalliklari”	ADTI
4.	Kalandarov D.M. Sodikova D.T. Kutlikova G.M.	“Gipolipidemicheskie i gipokoagulyantnye sredstva: xarakteristika issledovaniyaspetsificheskix i toksiologicalicheskix svoystv ”	ADTI

### Kafedra va kafedra xodimlari erishgan yutuqlari e‘tiborli:

O‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng kiritib borib jamoa va talabalar orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishgan. SSV ning terapevtik

xizmatni takomillashtirish va tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish hamda sog‘lom oilani yaratish dasturi bo‘yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirishadi, mamlakat ko‘lamida tayyorlangan dissertatsiyalar va darsliklar hamda monografiyalar taxlil qilish hamda baxolash ishlarida muntazam faol ishtirok etishadi. Kafedra grant loyixalarni bajarishda va xalqaro xamkorlik ishlarini kengaytirishda ibratli ishlarni amalga oshirgan hamda katta tajribaga ega. Respublikaga ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlab berishda katta xissalarini qo‘shishgan. Farg‘ona vodiysi ko‘lamida tibbiyotning birinchi bo‘g‘ini shifokorlari murabbiylari sifatida serqirrali faoliyat ko‘rsatishadi.

Kafedrada 18ta iqtidorli talabalar va 1ta “Umr” nomli ilmiy maktab faoliyat olib borishadi.

**Kafedra elektron kutubxonasiga** ega va u 5000 dan ortiq ilmiy manbalarni o‘z ichiga olgan. Pedagog va talabalar mustaqil faoliyatini samaralashtirib borishda ulardan unumli foydalaniladi.